




TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

**Toshkent shahrida
kichik tadbirkorlik
2021- yil yanvar-mart**


Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMDagi ulushi, % da



2019- yil



2020- yil



2021- yil

2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMDagi ulushi 46,2 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 32,9 birlikni tashkil qildi.

2021- yilning yanvar-martida **4502** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,9 foizga ko'p demakdir.

2021- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Savdo



Sanoat



Qurilish



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda **1802** ta, sanoatda 605 ta, qurilish 403 ta, yashash va ovqatlanishda 293 ta, axborot va aloqada 266 ta, tashish va saqlash **139** ta tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Sanoat 32,0



Qurilish 79,8



Investitsiya 51,4



Savdo 44,6



Xizmatlar 44,0



Eksport 18,6



Import 53,6



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

89 258




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

4 502

2021- yilning yanvar-martida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



2021- yil yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, % da

Savdo

31,3%



Sanoat

17,6%



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

1,0%



Qurilish

9,0%



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

7,7%



Tashish va saqlash

4,4%



Axborot va aloqa

4,5%




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,5%




Boshqa faoliyat turlari

20,0%



Yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



■ 2020- y. ■ 2021- y.



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



Hududlar bo'yicha yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda




■ 2020 y. yanvar-mart

■ 2021 y. yanvar-mart

2021- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da


2021- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Chilonzor tumani – 13,6 %, Yunusobod tumani – 11,8 %, Mirzo-Ulug'bek tumani – 11,6 %, Olmazor tumani – 9,8 %, Shayxontohur tumani – 9,3 %, Uchtepa tumani – 9,2, Sergeli tumani - 9,0 %, Yashnobod tumani - 8,3 % hissalari to'g'ri keldi.





Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Ma'lumot uchun: 2021– yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:


Savdoda
1802 ta

Sanoatda
605 ta

Qurilishda
403 ta

Yashash va ovqatlanishda
293 ta

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tumanlar, birlikda




Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida




2021- yil yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 32,9 birlikni tashkil etdi.



Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-mart holatiga ko'ra*



2021- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Bektemir tumanida 69,3 birlik, Yakkasaroy tumanida 64,8 birlik, Mirobod tumanida 49,9 birlik, Chilonzor tumanida 44,1 birlik, Sergeli tumanida 42,9 birlikni tashkil etgan.





Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2021- yil yanvar-mart holatiga ko'ra*


Eng yuqori ko'rsatkich
Bektemir tumani
- 69,3 birlik.

O'rtacha ko'rsatkich
Mirzo-Ulug'bek tumani
- 34,4 birlik.

Past ko'rsatkich
Yangi hayot tumani
- 12,5 birlik.

2021- yilning yanvar-martida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *


2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tumanlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Bektemir tumanida 69,3 birlik, Yakkasaroy tumanida 64,8 birlik, Mirobod tumanida 49,9 birlik, Chilonzor tumanida 44,1 birlik, Sergeli tumanida 42,9 birlik, Mirzo-Ulug'bek 34, 4 birlik



* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



Kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi




**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik
subyektlarining YaHMdagi ulushi, % da**

2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi **46,2** %ni tashkil qildi. (2020- yilning yanvar-martida **47,6** %).

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti




2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 139,4 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 18,6 % ini tashkil etdi.




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi

2021 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2021- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Chilonzor tumanida – 21,8%, Sergeli tumanida – 19,4 %, Yashnobod tumanida 19,3 %, Yakkasaroy tumanida 13,8 %, Yunusobod tumanida – 11,0 % va Olmazor tumanida – 8,0 %ni, eng past ko'rsatkich Bektemir tumanida – 3.7 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **1164,07** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **53,6 %** ini tashkil etdi.



2021 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2021- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Mirobod tumanida – 12,8 %, Olmazor tumanida – 12,0 %, Yakkasaroy tumanida – 11,0 %, Chilonzor tumanida – 10,9 %, Yashnobod tumanida – 10,1 %. Eng past ko'rsatkich Yangi hayot tumanida – 1,7 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2021- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi

2021- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **5113,1** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Yangi hayot tumani (13869,2 mlrd. so'm), Chilonzor (11009,1 mlrd. so'm), Olmazor (10401,9 mlrd. so'm), Sergeli (9267,4 mlrd. so'm) va Yunusobod (9011,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Yashnobod tumanida (2205,0 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi


2021- yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **32,0%** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-mart holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Yangihayot tumanida (86,8%), Chilonzor tumani (68,9%), Olmazor tumani (65,1%), Sergeli tumani (58,0%), Yunusobod tumani (56,4%), Yakkasaroy tumani (36,0%), Uchtepa tumani (30,1%), Mirzo-Ulug'bek tumani (26,9%), Bektemir (22,9%) va Shayxontohur (18,8%) tumani tashkil etdi. Yashnobod tumanida (13,8%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi


2021- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **3369,8** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **30,0** % ini tashkil etib. 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **8,4**% ga pasayishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar- martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Uchtepa tumani (479,3 mlrd. so'm), Chilonzor (436,3 mlrd. so'm), Yakkasaroy (393,1 mlrd. so'm), Mirzo-Ulug'bek (336,2 mlrd. so'm) va Shayxontohur (330,1 mlrd. so'm) Yunusobod (329,8 mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




2021- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **3835,9** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **79,8%** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **113,3 %** ni tashkil qildi.

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Yunusobod (398,9 mlrd. so'm), Yakkasaroy (365,4 mlrd. so'm), Shayxontohur (347,9 mlrd. so'm), Yashnobod (337,5 mlrd. so'm) hamda Olmazor (332,2 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2021- yilning yanvar- martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2021- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 9881.7 mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **44,0 %** ini tashkil qildi va oʻsish surʼati 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **110,5 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Mirzo-Ulugʻbek tumani (1117,9 mlrd.soʻm) Yunusobod tumani (1099,8 mlrd. soʻm), Chilonzor tumani (1095,6 mlrd. soʻm), Mirobod tumani (1044,2 mlrd.soʻm), Shayxontohur (1006,2 mlrd. soʻm), Yakkasaroy (945,6 mlrd. soʻm), va Uchtepa (831,0 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.

2021- yilning yanvar- martida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʼati




2021- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2021- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 44,2 % ni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 100,4 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 39,5 % ni tashkil etgan bo'lib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 100,04 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 20,6 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 109,7 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 24,4 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 109,3 % ni tashkil qildi.


Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil I chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada 4338 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 669 (15,4 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 3430 (79,1%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 239 (5,5%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 0,3 % (15 ta), sanoatda – 17,0 % (736 ta), qurilishda – 7,3 % (318 ta), savdoda – 34,3% (1489 ta), xizmatlar sohasida – 41,0 % (1780 ta)ni tashkil etdi.

2021- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2021- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Chilonzor (556 ta), Yunusobod (526 ta), Mirzo-Ulug'bek (467 ta), Olmazor (455 ta), Uchtepa (422 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari



2021- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2021- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2021- yilning I choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishlar sohasida 16,4 % ni, xizmatlar sohasida 15,8 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 13,3 %ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 86,7 % ni, sanoatda 80,9%ni, qurilishda 80,5 % ni tashkil etdi.

2021- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda 45,8%ni, sanoat sohasida 42,5%ni, xizmatlar sohasida 41,0 %ni tashkil etdi.

Shuningdek yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 66,7%ni, qurilishda 57,0%ni xizmatlarda 55,6 %ni, tashkil etdi.

